

# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## SARF TUSHUNCHASI QOG‘OZ PULLARNI QOG‘OZ PULLARGA ALMASHTIRISH HUKMLARI

### RULES FOR EXCHANGE OF PAPER MONEY FOR PAPER MONEY

Qudratjon Hasanov

Imom Buxoriy nomidagi Toshkent islom instituti “Tillar” kafedrası o‘qituvchisi  
e-mail: [mumtazjon2016@gmail.com](mailto:mumtazjon2016@gmail.com)

#### Annotatsiya

Maqolada, qog‘oz pullarni bir-biriga almashtirish hukmlari, mahalliy pullar va Chet el valyutalarini o‘zaro almashtirish, turli davlat valyutalari o‘rtasida ayirboshlashni amalga oshirish, pullarni ziyodasiga sotish, tilla va kumush ma‘daniy pullari, bir jinsli va turli jinsdagi pullarni almashtirishda rioya etilishi kerak bo‘lgan shartlar hamda bu mavzuga aloqador boshqa masalalar fuqaholarning fihiy asarlarida kelgan matnlar asosida o‘rganib chiqilib kerakli xulosalar berildi.

#### Abstract

In the article, the rulings on the exchange of paper money, the exchange of local money and foreign currencies, the implementation of exchange between different national currencies, the sale of money in excess, gold and silver cultural money, same-sex and different-sex the conditions to be observed when exchanging money and other issues related to this topic were studied based on the texts found in the fiqh works of jurists and the necessary conclusions were drawn.

**Kalit so‘zlar:** Sarf – ziyoda, fulus, tanga, bay’ – oldi-sotdi, Saman – naqd, Siyg‘a – iyjob va qabul, nasiya – kechiktirish, fazl – ziyoda, rukn – bu bir narsaning vujudga kelishiga bog‘liq bo‘lgan va uning bir juzi deb hisoblangan narsadir.

**Keywords:** more, coin, bought, sold, cash, acceptance, delay, extra, it is something that depends on the existence of something and is considered a part of it.

Sarf tushunchasi va uning hukmi

“Sarf” so‘zi lug‘atda “ziyoda” ma‘nosini bildiradi (Ibn Manzur, 1972:2434).

Istilohda ulamolar sarfga ikki xil ta‘rif berishgan:



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

1. Jumhur ulamolarning (hanafiy, shofe'iy, hanbaliy) ta'riflari bir-birlariga yaqin bo'lib, ikki naqdni (tilla, kumush) ba'zisini ba'zisiga jinsi bir yoki boshqa bo'lganda sotishni bildiradi.

Hanafiy ulamolar ta'rifi: "Samanlar (qiymatga ega narsalar)ni ba'zisini ba'zisiga sotish"( Zaynuddin ibn Ibrohim ibn Nujaym, 1991:209).

Shofe'iylar ta'rifi: "Naqdni o'z jinsiga va boshqa jinsga sotish"( Shamsuddin Shirbiniy, 1994: 280).

Hanbaliylar ta'rifi: "Naqdni naqdga sotish"( Mansur ibn Yunus Bahutiy, 1996:210).

2. Molikiylar sarfning ma'nosi – ikki naqdni faqat jinsi boshqa bo'lganda, ya'ni "Tillani kumushga sotish", deb ta'rif berishgan(Muhammad ibn Ahmad Dasuqiy, 2009:35).

Ixtiyor qilingan ta'rif va uning sharhi

O'tgan ta'riflardan ma'lum bo'ldiki, molikiylarning ta'rifi sarfning lug'aviy ma'nosiga qaratilgan. Ammo hadislarda kelgan ma'no, albatta, sarf so'zi ishlatilganda samanlarning jinsi bir xilmi yoki turli bo'ladimi, bay' (oldi-sotdi) iroda qilinadi.

Uboda ibn as-Somit roziyallohu anhudan rivoyat qilingan hadisda Rasululloh sallollohu alayhi vasallam aytadilar:

الذهب بالذهب الفضة بالفضة والبر بالبر والشعير بالشعير والتمر بالتمر والملح بالملح مثلا بمثل سواء بسواء يدا بيد فإذا اختلفت هذه الأصناف فبيعوا كيف شئتم إذا كان يدا بيد.

(Muslim ibn Hajjoj, 1987:4147).

"Tillani tillaga, kumushni kumushga, bug'doyni bug'doyga, arpani arpaga, xurmoni xurmoga, tuzni tuzga mislini misli bilan tengma teng, qo'lma-qo'l bo'ladi. Agar bu sinflar turli xil bo'lsa, bas qo'lma-qo'l xohlaganingizdek sotinglar".

Mana shu ma'noni jumhur ulamolar sarfga bergan ta'riflarida keltirishdi. Hanafiy ulamolarining ta'rifi eng qamrovlisidir.

Mabsutda kelgan ta'rifning sharhi: "Samanlarni bir-biriga sotish"( Shamsuddin Muhammad ibn Ahmad Saraxsiy, 2000:2). Chunki "saman" so'zi "naqd" so'zidan keng ma'noga ega.

"Bay'" so'zidan molni molga rozilik bilan almashtirish nazarda tutiladi(Zaynuddin ibn Ibrohim ibn Nujaym, 1991:277). Albatta, "bay'" so'zi jins bo'lib, unga oldi-sotdining barcha turlari, shu jumladan, sarf ham kiradi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

“Saman” so’zi tabiiy qiymatga ega bo’lgan tilla va kumushni bildiradi. U o’z ichiga zarblangan dinor, dirham, oltin rudasi, qimmatbaho marvaridlarni oladi (Muhammad Amin Ibn Obidin, 2000:257).

“Saman” so’zi “naqd” so’zidan qamrovliroqdir. Chunki “naqd” so’zidan zarblangan dinor va dirhamlar tushuniladi. Saman esa o’z ichiga lom, zarblangan tangalar va qimmatbaho narsalarning barchasini oladi. Bular sarf hukmiga kiradi. Yana “saman” so’zi tilla va kumush bilan cheklanmaydi. Unga dollar, rubl, yevro kabi qog’oz pullar ham kiradi.

“Ba’zisini ba’zisiga” so’zi qaydlash bo’lib, bunda samanlarni bir-biriga sotish nazarda tutiladi. Samanlarning boshqa narsalar bilan oldi-sotdisi bunga kirmaydi. Masalan, tilla yoki kumushning bug’doy bilan, mashinalar yoki ko’chmas mulklar bilan oldi-sotdisi. Bular sarf emas.

Sarfning hukmi va unga tegishli shar’iy dalillar

Sarfning hukmi:

Sarf joiz bo’lgan oldi-sotdi turlaridan biridir. Bunga oyati karimalar va hadisi shariflar dalolat qiladi.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam ribaviy mollarni jinsi bir bo’lganda misliga, jinsi boshqa bo’lganda ziyodasiga ba’zisini ba’zisiga qo’lma-qo’l sotishlikka ruxsat berganlar (Vahba Zuhayliy, 2006:3660).

Qog’oz pullarni qog’oz pullarga almashtirish hukmlari

Qog’oz pullarni qog’oz pullarga sarf qilish (almashtirish) ikki ko‘rinishga ega:

1. Mahalliy pullarni o‘zaro almashtirish, bunda pullar bir davlatga tegishli bo‘ladi.
2. Chet el pullarini o‘zaro almashtirish, bunda turli davlat valyutalari o‘rtasida ayirboshlash amalga oshiriladi.

Yuqoridagi ikki ko‘rinish bayoni:

1. Mahalliy pullarni o‘zaro almashtirish.

Albatta qog’oz pullar fuluslar (Tilla va kumushdan boshqa metallardan zarb qilingan tangalar. Qiymati bir dirhamning oltidan biriga teng bo’lganmayda tanga, pul) hukmida bo’ladi. Ularni almashtirish qoidalari fuluslarni bir-biriga sotish hukmlariga to’g’ri keladi. Bu turdagi qog’oz pullarning qiymati tengma-teng bo’lganda, oldi-sotdisi ijmo’ bilan joiz bo’ladi. Sharti, o’sha savdo majlisidan ajralmasdan ikki badal qo’lma-qo’l bo’lishidir (Abu Bakr Alouddin ibn Mas’ud Kosoniy, 1982:237). Hanafiy ulamolari nazdida, bu shart topilmasa, aqd fosid bo’ladi. Chunki ular fuluslarda belgilash bilan qaror topmaydi, balki qabz (qo’lga



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

olish) bilan qaror topadi, deyishadi. Qabz amalga oshmasa, ikki taraf qarzdor bo'ladi, qarzga qarz bilan ajralib ketish joiz emas (Muhammad Amin Ibn Obidin, 2000:179).

Ammo pullarni ziyodasiga sotishda, birining qiymati boshqasidan ko'proq bo'ladi. Masalan, bir dollarni ikki dollarga, bir yevroni ikki yevroga sotish. Bunda fuluslarni ziyodasiga sotish hukmlari joriy qilinadi. Bu mavzuda fuqaholarning mashhur xiloflari mavjud.

Imom Molik ibn Anas va Muhammad ibn Hasan Shayboniylar bir falsni ikki falsga sotish shariat harom qilgan ribodandir, deyishgan. Hanbaliylardan kelgan mashhur rivoyatda, hamda imom Abu Hanifa va Abu Yusuf ham harom deyishadi.

Imom Molik ibn Anas (rohimahulloh) ziyoda va nasiya harom bo'lishining illati qiymat deb e'tibor qiladi. Bular da asliy qiymatga ega tilla va kumush yoki urfda qabul qilingan fuluslarni, o'z jinsiga almashtirganda ziyoda va nasiya joiz bo'lmaydi.

Imom Molik aytadi: "Bir falsni ikki falsga (sotish) joiz emas va fuluslarni tilla, kumush va dinorlarga nasiyaga sotish joiz emas" (Imom Molik, 1990:104).

Muhammad ibn Hasan (rohimahulloh) aytadi: "Fuluslar, modomiki, muomalada ekan ularning qiymatini tushirishning iloji yo'q. Chunki ular umumiy kelishuv bilan qiymatga ega bo'lgan. Endi barchaning kelishuvisiz uni botil qilib bo'lmaydi. Ikki aqd qiluvchining o'zi botil yoki tayin qilolmaydi va bir falsni ikki falsga sotish umuman joiz emas".

Imom Abu Hanifa va Abu Yusuf aytadi: "Albatta, aqd qiluvchilar ularni tayinlash bilan qiymatini botil qila oladi. Shunda ular ma'lum buyumlarga aylanadi va ziyodalik joiz bo'ladi" (Burhoniddin Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr Marg'inoniy, 2005:64).

Imom Ahmaddan bu masalada ikki rivoyat kelgan:

- bir falsni ikki falsga sotish joiz, chunki u kishining nazdida riboning illati vazndir. Fuluslar adadiy bo'lganidan ularda bu narsa topilmaydi.

- bir falsni ikki falsga sotish joiz emas, unda ribo joriy bo'ladi. Chunki uning asli baribir vazndir (Abdulloh ibn Ahmad ibn Qudoma, 1984:128).

Fuluslar amalda bo'lsa ham ularda ribo yo'q. Ularni bir-biriga ziyodasi bilan sotish joiz (Muhammad Taqiy Usmoniy, 2013:158).

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, yuqoridagi fuqaholarning ixtiloflari qiymatlarni boshqarishda tilla va kumush asosiy me'yor bo'lgan zamonga to'g'ri keladi. O'sha



## Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

davrda tilla va kumush pullargina muomalada bo‘lgan. Fuluslar esa arziyas savdolarda ishlatilgan.

Hozirga kelib tilla va kumush ma‘daniy pullari yo‘q bo‘ldi va butun dunyoda u pullardan biror narsa qolmadi. Yuqorida bayon qilinganidek, barcha muomalalarda ma‘daniy pullar o‘rnini ramziy pullar egallab bo‘ldi.

Ulamolar, imom Muhammad yoki imom Molik (rohimahumalloh)larning ramziy pullarni bir-biriga sotish masalasida aytgan gaplarini hozirgi paytda olish vojib bo‘ladi, deyishadi. Chunki bugungi kunda imom Shofe‘iy (rohimahulloh) qavliga amal qilinsa, masalan, qarz beruvchi ribo qilishni xohlasa, o‘zining ramziy pullarini boshqa kishiga bergan qiymatidan ko‘proq ramziy pullarga sotadi.

Ismlari zikr etilgan fuqaholar, farazan, bu davrda hayot bo‘lganlarida, hozirda pullar holatining o‘zgarishiga guvoh bo‘lib, bir falsni ikki falsga sotish joiz emas, deb fatvo berar edilar. Haqiqatda, ba‘zi fuqaholardan bu ish sodir bo‘lgan. Movarounnahr ulamolari “adoliy” va “g‘atorifa” (Movarounnahrda ishlatilgan tanga pul birliklari)larda ziyodalik harom deyishdi. U pullarning tarkibida kumush juda oz nisbatda bo‘lgan. Aslida hanafiy mazhabida jinsi boshqa jins deb e‘tibor qilinganidan bu pullarga o‘xshashkarda ziyodalik joizdir. Movarounnahr mashoyixlari ularda ziyodalik haromligiga fatvo berib, aytishgan: “Albatta, u pullar bizning diyorimizda eng aziz mollardir. Agar ularda ziyodalik muboh deyilsa, ribo eshigi ochiladi”(Muhammad Taqiy Usmoniy, 2013:160).

Ulamolar fuluslar borasida imom Muhammad (rohimahulloh)aytgan gaplarini dalil jihatdan quvvatliroq deyishadi(Muhammad Taqiy Usmoniy, 2013:160).

Bir jinsli qog‘oz pullarni almashtirishda misllik shart bo‘lib, ziyodasi joiz bo‘lmaydi. Bunda misllik pullarning adadi bilan emas, balki ularning baho qiymati bilan belgilanadi. Masalan, baho qiymati ellik dollar bo‘lgan bitta qog‘oz pulni har birining qiymati o‘n dollardan bo‘lgan beshta qog‘oz pulga sotish joiz bo‘ladi. Chunki bu beshtaning qiymati yig‘indisi ellik dollarga to‘g‘ri keladi. Bu pullarni sotishda ularning varag‘i, vazni yoki adadi emas, balki ularga teng bo‘lgan qiymat maqsad qilinadi. Ana shu qiymatda tenglik vojib bo‘ladi. Fuqaholar fuluslarning asli vaznlangan ma‘dandan bo‘lsa ham, ularning adadini e‘tiborga olishadi. Chunki fuluslarning zoti emas, ular teng bo‘lgan qiymat maqsad qilinadi. Fuluslardan bir bo‘lagi o‘n falsga teng bo‘lsa, uni har birining qiymati bir falsga teng o‘n bo‘lakka sotish mubohdir. Chunki ular qiymatda tengdir. Shuningdek, qog‘oz pullarda ham ularga berilgan baho qiymati e‘tiborlidir.





# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

## 2. Turli davlatlar valyutalarini o‘zaro almashtirish

Ulamolar turli davlatlar pullarini bir jins deb hisoblashmaydi. Chunki bugungi kunda qog‘oz pulning o‘zi maqsad qilinmaydi. Balki qog‘oz pul sotib olish quvvatiga xos bo‘lgan bir me‘yordir va uning qiymatini har bir davlat o‘zi belgilaydi. Ushbu me‘yor, davlatlarning kiritim hajmiga va ishlab chiqarishiga qarab o‘rnatiladi. Ammo bu me‘yor o‘rtasini o‘zgarimas tizimda ushlab turadigan biror moddiy narsa yo‘q. Bu pullarning sotib olish quvvati turli davlatlar iqtisodiy holatining o‘zgarishiga qarab, kundan kunga, hatto soatma-soat o‘zgarib boradi. Shuning uchun davlatlararo pullarning o‘rtasida barqaror aloqa yo‘qligi tufayli ularni bir jins qilib bo‘lmaydi. Demak davlatlararo pullar bir jins emas ekan, ular bir turdagi narsalar hisoblanmaydi. Shunga ko‘ra ularning nomlari, o‘lchovlari va bo‘laklari turlicha bo‘ladi. Davlatlararo pullar bir jins bo‘lmagach, ularni ziyodasiga sotish ijmo‘an joiz hisoblanadi.

Imom Shofe‘iy (rohimahulloh) da bir turdagi pulning bir falsini (mayda tanga, pul) ikki falsga sotish joiz bo‘lganidan keyin turli jinsdagi pullarda mutlaqo joizdir. Hanbaliy mazhabida ham xuddi shu gap. Imom Molik (rohimahulloh) bu pullarni riboviy mollardan deb sanaydi. Ushbu pullarning jinsi o‘zgaradigan bo‘lsa, u kishida ham ziyodalik joiz bo‘ladi. Imom Abu Hanifa (rohimahulloh) va u kishining shogirdlari nazdida bir falsni ikki falsga sotish harom bo‘lishiga sabab, fuluslar o‘zaro teng bo‘lib, ziyodaga sotilganda, evazdan xoli foyda vujudga kelishidir (Muhammad Taqiy Usmoniy, 2013:162).

Ma‘lumki, turli davlatlar pullari har xil jinsda bo‘lib, o‘zaro teng hisoblanmaydi va evazdan xoli foyda ham yuzaga kelmaydi. Demak, masalan, bir AQSH dollari bir necha rublga yoki bir necha so‘mga sotilishi joiz bo‘ladi.

Xulosa o‘rnida quyidagilarni aytish mumkin:

- Sarf – joiz bo‘lgan moliyaviy muomalalardan hisoblanadi. Sarf aqdida boshqa savdolarda bo‘lmagan o‘ziga xos shartlar mavjud. Bir-biridan ajralishdan oldin ikki badalni qo‘lga olish. Sarf aqdida ikki tomon ajralmasdan turib, badallarni qo‘lga olgan bo‘lishlari shart. Bunda savdo tillani tillaga, kumushni kumushga kabi bir jins yoki tillani kumushga kabi turli jins sarfi bo‘ladimi, farqi yo‘q.

- Haqiqiy qabz his bilan idrok qilinadi, qo‘l bilan olish kabi. Unda aqd majlisida sarf uchun ikki badal mavjud va hozir bo‘ladi.

- Hukmiy qabz taqdiriy qabz bo‘lib, his bilan idrok qilinmaydi.



# Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25<sup>th</sup> June - 2024

ISSN: 2835-396X

Website: [econferenceseries.com](http://econferenceseries.com)

- Sarf aqdi kechiktirish shartidan xoli bo'lishi. Sarf aqdida ikki badal o'sha vaqtning o'zida shart qilinadi. Aqd qiluvchilarning birortasi buni kechiktirishi joiz emas. Agar muddat belgilasa, sarf fosid bo'ladi. Chunki ikki badalni qo'lga olish ajralishdan oldin bo'lishi kerak. Muddat esa aqdga bog'liq bo'lgan qabzni ketkazadi. Sarfga muddat kirsa, u molning asliga ziyoda bo'lmasa ham, ribo bo'ladi, ya'ni nasiya ribosiga aylanadi.

- Sarf aqdi xiyori shartdan (tanlash huquqi) xoli bo'lishi. Sarfda ixtiyor qilish shart qilinsa, sahih bo'lmaydi, bu aqdni va shartni botil qiladi. Sababi xiyori shart aqd hukmiga kiradi va uni bu shartga bog'laydi. Bu esa mulkning sobit bo'lishi yoki uning tugal bo'lishini man qiladi. Bu sarf aqdi qo'lma-qo'llik shartiga xilofdir.

- Jinsi bir bo'lganda misli barobarida bo'lishi. Bu shart ikki badal bir jinsli bo'lgandagi holatga xosdir. Masalan, tillani tillaga yoki kumushni kumushga. Ular sifatda farq qilsa ham, vaznda ular o'rtasida tenglik vojib bo'ladi. Ulamolarning ittifoqiga ko'ra, ularning quymasi bilan buyum sifatidagisining farqi yo'q. Ammo tillani kumushga sotish kabi jinsi boshqa bo'lganda, qo'lma-qo'llik sharti bilan ziyodalik joiz bo'ladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdulloh ibn Ahmad ibn Qudoma (1984). Mug'niy ala muxtasaril xorqiy (J. 4). Bayrut: Dorul fikr.
2. Abu Bakr Alouddin ibn Mas'ud Kosoniy (1982). Badoius sano'i' fi tartibish sharoi' (J. 5). Bayrut: Dorul kitob arabiy.
3. Burhoniddin Abul Hasan Ali ibn Abu Bakr Marg'inoniy (2005). Hidoya sharh bidoyatul muftadiy (J. 3). Bayrut: Dorul arqom.
4. Imom Molik (1990). Mudavvanatul kubro (J. 8). Bayrut: Dorul fikr.
5. Muhammad Amin Ibn Obidin (2000). Raddul muhtor ala Durril muxtor (J. 5). Bayrut: Dorul fikr.
6. Muhammad Taqiy Usmoniy (2013). Buhus fi qazoyo fiqhiyya mu'osira (J. 1). Damashq: Dorulqalam.

